



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
BANDLIK VA MEHNAT MUNOSABATLARI VAZIRLIGI

**B U Y R U Q**

20<sup>21</sup> yil "06" sentabr 349-ICH son

Toshkent sh.

**O'zbekiston Respublikasi  
Prezidentining 2021-yil  
31-avgustdagi PQ-5241-son  
Qarorini ijro etish to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviylikini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 31-avgustdagi PQ-5241-son Qarorini ijro etish maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy, o'rta maxsus va professional ta'lim muassasalari o'rtasida ta'lim jarayoni hamda tarmoq tashkilotlari bilan ishlab chiqarish amaliyoti uzviylikini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2021-yil 31-avgustdagi PQ-5241-son qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. **Kasb-hunarga o'qitishni tashkil etish va kasbiy malakani rivojlantirish departamenti (Sh.Shaabdikarimov)** 2021/2022 o'quv yilidan boshlab Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar hamda Toshkent shahar hokimliklari, Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi hamda tizimida texnikumlar bo'lgan vazirlik, idora va xo'jalik birlashmalari bilan birgalikda texnikum bitiruvchilarining ishlab chiqarish amaliyotini tashkil etish bo'yicha tarmoq tashkilotlarida zarur shart-sharoitlar yaratilishi ustidan nazorat o'rnatsin va amaliyot o'tash grafiklarini ishlab chiqib, tasdiqlanishini ta'minlasin.

3. **Band bo'lmagan aholini ishga joylashtirish bo'yicha ishlarni tashkil etish boshqarmasi (T.Maxmudov), Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Bandlik bosh boshqarmalari:**

har yili 1 may kuniga qadar texnikum bitiruvchilarini bandligini ta'minlashga qaratilgan dasturlar ishlab chiqishda va ijrosini doimiy nazorat qilishda;

**har yili iyul-avgust oylarida** texnikum bitiruvchilari uchun har bir shahar va tumanlarda ish beruvchilarni jalb etgan holda bo'sh ish o'rinlari mehnat yarmarkalari, **"Karyera kuni"** tadbirlarini o'tkazishda hamda ishlab chiqarish tashkilotlari bilan birgalikda tasdiqlangan reja-grafiklarga asosan **"Ochiq eshiklar kuni"** tashkil etishda ishtirok etsin.

Huzurida texnikum va akademik litsey bo'lgan oliy ta'lim muassasalaridan **har yili 1 dekabrga qadar** ta'limni keyingi bosqichini davom ettirmayotgan texnikum, akademik litsey bitiruvchilari ro'yxatini olib, ularni bandligini ta'minlash choralarini ko'rsin.

**4. Mehnat standartlari va mehnatga haq to'lash boshqarmasi (A.Navotniy), Matbuot kotibi (M.Mirzaeva), Qoraqalpog'iston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar Bandlik bosh boshqarmalari;**

**har yili 1-fevralga qadar** respublikada eng ko'p talab etiladigan o'rta bo'g'in kadrlarini ishlashi mumkin bo'lgan kasblar va lavozimlar ro'yxatini shakllantirsin.

kasblar va lavozimlar to'g'risidagi ma'lumotlarni vazirlikni saytida e'lon qilib borsin.

**5. Mazkur buyruqning bajarilishini nazorat qilish vazir o'rinbosari B.Umurzakov zimmasiga yuklansin.**

**Vazir**



**N. Xusanov**

